

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING IJODKORLIK KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TA'LIM- TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISH

Salimova Dilmira Farxodovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MTTDMQTMO Instituti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining mustahkam bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari, ijodiy qobiliyatlarining shakllanishi, rivojlantiruvchi markazlarda ta'lim-tarbiya faoliyatini turli xil o'yinlar orqali, kreativ yondoshgan holda boshqarishlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, syujet-rolli o'yin, ijodiy qobiliyat, tarbiyachi-pedagog, kreativ, rivojlantiruvchi markaz, ta'lim-tarbiya, maktab

Аннотация: В статье рассматриваются, что педагоги дошкольной образовательной организации должны обладать прочными знаниями и умениями, формированием их творческих способностей, а также управлять образовательной деятельностью в центрах развития посредством различных игр с творческим подходом.

Ключевые слова: дошкольный возраст, ролевая игра, творческие способности, педагог-педагог, творческий, развивающий центр, образование, школа

Abstract: The article discusses that teachers of a preschool educational organization must have solid knowledge and skills, the formation of their creative abilities, and also manage educational activities in development centers through various games with a creative approach.

Key words: preschool age, role-playing game, creativity, teacher-teacher, creative, development center, education, school.

Mustaqilligimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlashda har bir o'sib kelayotgan yosh avlod qalbiga ona Vatanga mexr-muhabbat, istiqlolga sadoqat, kelajakka ishonch tuyg'ularini singdirish, dunyoqarashini kengaytirish, bir so'z bilan aytganda, har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib voyaga yetkazish muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 9-sentabr kuni PQ-3261 sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror imzoladi. Mazkur qarorda "O'tgan davr mobaynida sog'lom va har tomonlama rivojlangan o'sib kelayotgan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil qilish bo'yicha kompleks tashkiliy huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi va shu bilan birga, mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda" deyilgan va qaror matnida kamchiliklar birma-bir sanab berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan olib boriladigan yozgi ishlarni, sog'lomlashtirish davri deb nomlash qabul qilinishi mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar samarasidir, chunki u o'z xususiyatiga ega.

Ma'lumki, bolaga maktabgacha yoshida berilgan ta'lim- tarbiya uning butun hayoti davomida muhim o'rin tutadi. Respublikamizning kundan- kunga jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallab borishi, rivojlangan davlatlar bilan tenglik tamoyili asosida o'zaro hamkorlikka erishishi, nafaqat ota-onalar, balki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari zimmasiga bolani yoshiga munosib tarzda har zaruriyatini yuklamoqda. Bu borada Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari", "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'grisida"gi qonun kabi muhim hujjatlar qabul qilindi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda sahnalashtirilgan tomoshalar vositasida samarali foydalanish-bolalarning iqtidori, ob'ektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratish bilan yanada ahamiyatlidir. Bolalarni milliy ma'daniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining maqsadidir.

Bolalar o‘yinlari muammosiga pedagoglar, psixologlar, faylasuflar, etnograflarning ko‘plab ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Pedagogika va psixologiya sohasida ushbu muammoga ahamiyat bermagan bironta ham yirik tadqiqotchi qolmagan. Mualliflarning falsafiy yondashuvlariga qarab, uning umumiy tushunchasiga ko‘ra, o‘yin ortiqcha kuchning namoyon bo‘lishi, so‘ngra instinktning namoyon bo‘lishi, keyin esa kelajakdagi faoliyatga tayyorgarlik va hokazolar sifatida talqin qilinadi.

O‘yinlarning barcha turlari orasida bolani rivojlantirish uchun eng yaxshi ta’sir etadigani syujetli va rolli o‘yinlardir. Bolalar uchun eng sevimli, eng kerakli o‘yinlar - bu shunday o‘yinlarki, unda bolalar o‘zlari o‘yin maqsadini belgilaydi. Bular: uy qurish, maktabga borish, tushlik qilish... O‘yin jarayoni ushbu maqsadga erishishdan iboratdir: bola reja tuzadi, amalga oshirish usullarini tanlaydi. U minadigan poezd stullardan qurilgan bo‘lsin, uy yog‘och chipslardan qurilsin, lekin gap bunda emas, bolaning tasavvurlari haqiqatni to‘ldiradi; bu yerda reja tuzish jarayonining o‘zi juda muhimdir. O‘yin faoliyatida bolaning kattalar hayotida ishtirok etish zarurati amalga oshiriladi.

Syujetli-rolli o‘yinlarni boshqarishda pedagog oldida turgan asosiy vazifalar:

- o‘yinning faoliyat sifatida rivojlanishi;
- o‘yinni bolalar jamoasi va alohida bolalarni tarbiyalash maqsadida qo‘llash.

O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning taa’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ishini ko‘p qirrali, deb hisoblash mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, bolalarda turli xil sifatlarni shakllantirishda pedagoglarning ijodiy yondashuvi, kreativ g‘oyalari va zamonaviy dunyoqarashi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola tengdoshlari va kattalar o‘rtasidagi suhbatlaridan odamlarning kundalik hayoti to‘g‘risidagi turli xil ma’lumotlarni eshitadilar va o‘zlashtiradilar. Ushbu bilimlarni har doim ham bir tizimga solish yoki "haqiqat" deb qarash mumkin emas. Bola hayotining birinchi yetti yili ichida har

tomonlarni rivojlanishining uzoq yo'lini bosib o'tadi. Shuning uchun ham maktabgacha bo'lgan yoshda bola ko'p narsalarni o'rganishi va o'zlashtirishi kerak. Bolaning keyingi maktab davrida bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi atrofidagi dunyo bilimlarini va o'zi haqidagi bilimlarni qanday egallashiga bog'liq. Bunga esa albatta bo'lajak tarbiyachilar mustahkam bilim va ko'nikmaga ega bolishlari, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishlar zarur bo'ladi. Rivojlantiruvchi markazlar bilan yuqori mahoratda faoliyat olib bora olgan pedagoglar albatta o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadilar. Ushbu markazlarda pedagogning ham, bolaning ham ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi muhit syujetli-rolli o'yinlar hisoblanadi. Syujetli-rolli o'yin - bu bolalarning faol faoliyat turi hisoblanadi, bu jarayonda ular eng muhim bir faoliyat sohasini shartli vaziyatlarda ijtimoiy rollarini egallash hamda rasmiy va norasmiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida kattalar bilan muloqotni ko'raytiradilar. Syujet-rolli o'yinning asosini tasavvuriy yoki xayoliy vaziyat tashkil etadi. Bunda bolalar o'zi yaratgan o'yin muhitida, ijodiy yondashgan holda kattalar rolini bajara olishidan iborat. Masalan, maktab o'yinini o'ynash orqali sinfda (gilamchada) o'quvchilarga (tengdoshlar) dars o'tayotgan o'qituvchini tasvirlaydi.

Syujet-rolli o'yinlarni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratishimiz mumkin:

- syujet
- mazmun
- rol

Syujet o'yinning asosiy tarkibiy qismidir, syujetsiz rol o'ynashning iloji yoq. Syujetli o'yinlar bolalarning rol ijrosi tomonidan takrorlanadigan haqiqat doirasidir. Syujet-rolli o'yin bola tomonidan boshqalarning hayoti va faoliyatidan ma'lum harakatlar, hodisalar va munosabatlarni aks ettiradi. Bundan tashqari, uning o'yin harakatlari (mashina rulini burish, kechki ovqatni tayyorlash va h.k.) rolni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biridir. O'yinlarning syujetlari har xil bo'ladi. Odatdagidek, ular uy sharoitida (oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun o'yinlar), odamlarning kasbiy sohalarini aks ettiruvchilarga, ishlab chiqarish (kasalxonadagi, do'konidagi o'yinlar va boshqalar), jamoat joylaridagi (shaharning tug'ilgan kunini, kutubxonaga, maktabga va hokazolarga bag'ishlangan o'yinlar) ga bo'linadi.

Tarbiyachi bolalarning o'yin harakatlarini boshqargan holda, o'z ijodiy munosabatini bildirib undagi personajlar ijrosini tanlashiga ta'siri bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishini ortishiga, ularning tashabbuslarini rivojlantirishiga olib keladi. Bolalarga o'yin mavzusini o'zlari o'ylab eng qiziqclarini mustaqil tanlashga o'rganadilar. Bu tarbiyachini bolalar bilan yanada yaqinlashtiradi va o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishga imkon beradi. Shunday qilib, tarbiyachining mahoratli rahbarligi bilan o'yin faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish syujetli-rolli o'yinlarni hayajonli va zavqli jarayonga aylantira olishi mumkin. Ushbu jarayonda maktabgacha yoshdagi bolaning to'liq rivojlanishi sodir bo'ladi.

Ilk qadam davlat o'quv dasturining oy mavzulari bo'yicha "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish rivojlanish" markazi ta'limiy faoliyatini tashkil etishda yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ijodiy yondashib Syujetli-rolli o'yinlar kartotekasi ishlab chiqiladi.

Syujet-rolli o'yinlarning turlari:

1. Kundalik mavzulardagi syujet-rolli o'yinlar: "uyda", "oilada", "dam olishda", "tug'ilgan kunlarda
2. Odamlarning mehnatini aks ettiradigan sanoat va ijtimoiy mavzudagi syujet-rolli o'yinlar.
3. Xalqimizning qahramonliklarini aks ettiruvchi qahramonlik
4. Badiiy asarlar, filmlar, televizion va radio dasturlar mavzusidagi syujet-rolli o'yinlar
5. "Muallifli" syujet-rolli o'yinlar

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy xatti-harakatlarini shakllantirish uchun tarbiyachilarga bolalarning faoliyatlarida syujet-rolli o'yinlar orqali yetarli darajaga, samaradorlikka erishishlari uchun yo'riqnoma yoki tavsiyaga asosan jarayonni tashkil etishlari lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markaz faoliyatini tashkil etish

bo'yicha tavsiyalar:

1. Avvalambor syujet-rolli o'yinni biz bolalarga savol berish bilan boshlaymiz "Siz qanday syujet-rolli o'yin o'ynashni xohlar edingiz?" va "kim bilan?" v.h. Shu yo'l bilan biz bolalarni o'zaro muloqotga kiritamiz (Malika Shoira bilan yoki Anvar Behruz bilan).

Bunday muloqotlar tarbiyachi tomonidan boshqarilishi va albatta rag'batlantirilishi kerak;

2. Tarbiyachi o'z o'yinini taklif qilishi va shu bilan birga bolalarning qiziqishini uyg'otish uchun o'zi ham kichik syujetni o'ynashi mumkin;

3. Tarbiyachi o'yinni ohistalik bilan boshqarishi, bolalarning ijobiy munosabatlarini va rolni muvaffaqiyatli bajarishlarini ma'qullashi hamda nizolarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak (ayniqsa o'rtasida nizosi bor bolalar bilan);

4. Tarbiyachi syujet-rolli o'yinlarda birinchi asosiy rolda bo'ladi so'ng ikkinchi darajaga o'tishi kerak;

5. Bolalarni rag'batlantiring. O'zingiz hohishingizga ko'ra hamkorlikdagi o'yiningizni tashkil qiling. Tarbiyachi bolalarni istagini qo'llab-quvvatlashi va rollarni tog'ri taqsimlab, atributlarni to'g'ri tanlashiga yor berishi kerak.

6. Bolalarning birgalikdagi syujet-rolli o'yinini quvnoq, yoqimli taassurotlarini mustahkamlash uchun tarbiyachi guruhning boshqa bolalarining ham e'tiborini syujet-rolli o'yinga qaratishi kerak.

7. Kechki soatda ota-onalari bilan bo'lgan suhbatda bolalar ishtirokida ularning syujet-rolli o'yinlarini muhokama qilib "yaxshi o'yin" o'ynashganini aytish lozim.

8. Hafta davomida ushbu syujet-rolli o'yinlarni bolalar bilan eslab turing.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalar syujetli-rolli o'yinlarni sahnalashtirish orqali ijodiy rivojlantirishning umumiy tamoyillariga tayaniladi, u murakkab tuzilishga ega va tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qo'llanadi. Ijtimoiy va davlat buyurtmasi jamiyatning yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiradi. Ta'lim va tarbiya sifatining mezonlari jamiyat talablari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tarbiyachi faoliyatining natijalari va maqsadlari muvofiqligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori 2018 yil 9-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi– T.:2022
3. Salimova D.F. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o‘yinlar vositasida axloqiy sifatlarini shakllantirishning samarali metodlari” nomli metodik qo‘llanma Toshkent, 2021